Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



O'ZBEKISTONDA DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNI ISLOH QILISHNING ISTIQBOLLARI

Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)



Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarining ta'rif va huquqiy maqomi, O'zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokidagi korxonalarning o'rni yoritilgan. Davlat ishtirokidagi korxonalarni aniqlashning xalqaro amaliyotdagi ta'riflari ko'rsatib o'tilgan. So'nggi yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari bayon etilib, kelgusida ularni isloh qilish va xususiylashtirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: davlat ishtirokidagi korxona, davlat korxonasi, unitar korxona, davlat muassasasi, xususiylashtirish, aksiyadorlik jamiyati, mas'uliyati cheklangan jamiyat.

Abstract: This article describes the definition of the concept and legal status of "enterprises with state participation", the role of state-owned enterprises in the economy of Uzbekistan. Definitions of the concept of "enterprises with state participation" in international practice are given. The main directions of transformation of state-owned enterprises in recent years are listed, proposals are formulated for their reform and privatization in the future.

Key words: enterprise with state participation, state enterprise, unitary enterprise, state institution, privatization, joint-stock company, limited liability company.

Аннотация: В данной статье описано определение понятия и правовой статус "предприятий с государственным участием", роль государственных предприятий в экономике Узбекистана. Приведены определения понятия "предприятий с государственным участием" в международной практике. Перечислены основные направления трансформации государственных предприятий за последние годы, сформулированы предложения по их реформированию и приватизации в будущем.

Ключевые слова: предприятие с государственным участием, государственное предприятие, унитарное предприятие, государственное учреждение, приватизация, акционерное общество, общество с ограниченной ответственностью.

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari qonunchilikka muvofiq istalgan tashkiliy-huquqiy tuzilishda hamda turli mulkchilik shakllarida faoliyatini olib borishi mumkin.

Xo'jalik munosabatlari tizimida, korxonalarning alohida toifasi – davlat korxonalari shakli mavjudki, ular bilan bog'liq huquqiy munosabatlar ayrim hollarda alohida tartibga solishni talab etadi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va xususiylashtirish ko'lamini kengaytirish mamlakatimiz iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Iqtisodiyotda davlat ulushi miqdorining yuqoriligicha qolayotganligi – iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi pastligiga sabab bo'lib, davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va xususiylashtirishga bo'lgan zaruratni kuchaytirmoqda.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, davlat korxonalari faoliyatining samaradorligini va shaffofligini oshirish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishda "davlat korxonasi" tushunchasining huquqiy maqomini hamda belgilarini aniqlash muhim hisoblanadi. Tegishli mezonlar asosida davlat korxonalarining ro'yxatini aniqlash – ularni isloh qilishda manzilli choralar ko'rish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Davlat korxonasi tushunchasi, davlat ishtirokidagi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rni va iqtisodiy munosabatlardagi aralashuvi, davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi optimal salmog'ini saqlash masalalari chet ellik olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

Iqtisodiyotda xususiylashtirishning afzalliklari va munozarali jihatlar bo'yicha o'tkazilgan aksariyat tahlillarning xulosalari, davlat ishtirokidagi korxonalarga nisbatan xususiylashtirish shaklidagi korxonalarning faoliyati



samaraliroq ekanligi isbotlanganini Zaragoza universiteti (Ispaniya) professori Patricia Bachiller tadqiqotlarida ko'rish mumkin¹.

Iqtisodchilar D'Souza va Megginson tadqiqotida jami 85 ta, shtab-kvartirasi 15 ta rivojlangan davlatlarda joylashgan 58 ta hamda 13 ta rivojlanayotgan mamlakatlardagi 27 ta kompaniyaning faoliyati tahlil qilish natijasida, xususiylashtirish samara olib kelganligi asoslangan².

Lekin, korxonalarni xususiylashtirish ularning samaradorligini oshirishi to'g'risidagi yondashuvni qo'llab-quvvatlashsada, amaliyotda ayrim mamlakatlar misolida teskari tasdiqlar ham mavjud. Masalan, iqtisodchi olimlar Dang, L., D. Nguyen va F. Taghizadeh-Hesary tomonidan Vetnam misolida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ko'rish mumkinki, ayrim iqtisodiy tizimlarda xususiy sektorga nisbatan davlat ishtirokidagi korxonalar samaraliroq faoliyat ko'rsatayotganligi ta'kidlanadi³. Shuningdek, iqtisodiyotning tizim hosil qiluvchi tarmoqlarida, ayniqsa inqiroz sharoitida davlat egaligidagi korxonalar va xususiy kompaniyalarning samaradorligi o'zaro yaqin ekanligini tahlil qilishgan⁴.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat ishtirokidagi korxonalarni huquqiy maqomini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, taqqoslash, sabab-oqibat aloqadorligi va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarni tadbirkorlik subyektlarining keng tarqalgan shakllari – aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyat va unitar korxonalar orasida uchratish mumkin.

Davlat ishtirokidagi korxonalarning faoliyat ko'lamini Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. 2021-yil yakunlari bo'yicha mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 50 foizi, tashqi savdo aylanmasining 20 foizi, tijorat banklari aktivlarining 80 foizdan ortig'i davlat egaligidagi korxonalar tomonidan yaratilgan⁵. Davlat ishtirokidagi korxonalar to'laydigan soliqlar budjet tushumlarining ham katta qismini ta'minlab beradi.

Shu bilan birga, aholi bandligini ta'minlashda davlat sektorining ulushi 6 foiz atrofida bo'lib, aholi bandligini ta'minlashda xususiy sektorning o'rnini kattaligini ko'rsatmoqda⁶.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida hukumatlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri shubhasiz iqtisodiyotni transformatsiya qilish hisoblanadi. Davlat ishtirokidagi va xususiy korxonalarga teng imkoniyatlar yaratish hamda davlat korxonalarni xususiylashtirish bozor munosabatlarini shakllantirishning zaruriy talabi sifatida qaraladi.

“Davlat ishtirokidagi korxona” tushunchasi xorijiy adabiyotlarda uchramaydi. Ushbu termin milliy qonunchiligimizga xos bo'lib, “davlat korxonasi” tushunchasiga nisbatan kengroq kamrovga ega.

Xalqaro tashkilotlar, chet el mamlakatlari tomonidan “davlat korxonasi” tushunchasining mazmunini yoritishda Jahon savdo tashkiloti (JST) tomonidan davlat savdo korxonasiga berilgan ta'rifdan⁷ foydalaniladi hamda fikrimizcha, uni “umume'tirof etilgan ta'rif” sifatida ko'rish mumkin. Unga ko'ra, davlat savdo korxonasi sifatida:

- to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita korxonaning ustav kapitalida 50 foiz yoki undan ortiq ulushga davlat egalik qilsa;
- hukumat idoralarida to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita korxona direktorlar kengashi yoki shunga tenglashtirilgan boshqaruv organi a'zolarining yarmidan ortig'ini tayinlash vakolati mavjud bo'lsa;
- hukumatning korxona faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirsa yoki unda nazoratni amalga oshirish imkoniyati bo'lsa;
- davlat tomonidan korxonaga muayyan monopol huquqlar va eksklyuziv vakolatlar berilgan bo'lsa;
- soliqlar bo'yicha va boshqa turli imtiyozlar berilgan korxonalar hamda buning natijasida korxona bozordagi savdo hajmiga va uning yo'nalishlariga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan toifadagi korxonalar tavsiflanadi.

1 Patricia Bachiller, University of Zaragoza | UNIZAR Department of Accounting and Finance (FCEM). The Impact of Privatization on Economic Performance in European Companies, 2012;

2 D'Souza, J. & Megginson, W. (1999). The financial and operating performance of privatized firms during the 1990s. // Journal of Finance, 54 (4), 1397–1438.

3 Dang, L.N., D.D.Nguyen, and F. Taghizadeh-Hesary. 2020. State-Owned Enterprise Reform in Viet Nam: Progress and Challenges. ADBI Working Paper 1071. Tokyo: Asian Development Bank Institute. Available: <https://www.adb.org/publications/state-owned-enterprise-reform-viet-nam-progress-challenges>

4 State-Owned Enterprises in the EU: Lessons Learnt and Ways Forward in a Post-Crisis Context. INSTITUTIONAL PAPER 031 | JULY 2016. http://ec.europa.eu/economy_finance/publications/.

5 Obid Hakimov, “Rol gosudarstva i biznesa v ekonomike: povorotnyy moment reform”. Yangi O'zbekiston gazetasi, 2022 yil 12 aprel. <https://yuz.uz/ru/news/rol-gosudarstva-i-biznesa-v-ekonomike-povorotnyy-moment-reform>

6 [https://www.spot.uz/ru/2020/03/17/business-vs-gov/#:~:text="https://www.wto.org/english/tratop_e/statra_e/statra_info_e.htm](https://www.spot.uz/ru/2020/03/17/business-vs-gov/#:~:text=)

7 https://www.wto.org/english/tratop_e/statra_e/statra_info_e.htm



Ko'rinib turibdiki, JST metodologiyasi bo'yicha davlat korxonasi sifatida toifalanadigan korxonalarning ko'lami ancha keng bo'lib, faqatgina korxona ustav kapitalida davlat ulushi mavjud yoki mavjud emasligi bilan cheklanib qolmaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda "davlat korxonasi"ning korxonaga egalik qiladigan hukumat idorasi (markaziy, federal, mahalliy), korxona qanday yo'l bilan tashkil etilganligi, korxona maqsadiga qarab turli huquqiy shakllarda bo'lishi mumkinligi qayd etilgan⁸.

"Davlat korxonasi" tushunchasiga xalqaro amaliyotda keng qo'llanayotgan ta'rif IHRT va Davlat sektorida xalqaro hisobot standartlari (IPSAS) tashkiloti tomonidan berilgan bo'lib, unga ko'ra – davlat korxonasi to'liq, jajoritar va hal qiluvchi minoritar egalik ulushi orqali davlat hal qiluvchi nazoratga ega bo'lgan korxona hisoblanadi⁹.

Shu bilan birga, har bir davlatning qonunchiligi bilan davlat korxonasining ta'rif, belgilari va huquqiy maqomi o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martda qabul qilingan "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonunida davlat ishtirokidagi korxona tushunchasiga – "ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori ellik foizdan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyati yoxud ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori xo'jalik jamiyatining boshqa har bir aksiyadori (ishtirokchisi) ulushiga nisbatan ko'p bo'lgan xo'jalik jamiyati, shuningdek davlat unitar korxonasi" sifatida ta'rif berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat korxonalari to'g'risida"gi Nizomda "davlat korxonasi - davlat mulkidagi, o'ziga tezkorlik bilan boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotidir, u o'ziga birkutilgan mulkdan qonunda belgilangan doirada, o'z faoliyati maqsadlariga, mulkdoming (yoki uning topshirig'iga ko'ra u vakolat bergan davlat organi - muassisning) topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi" deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi "davlat korxonasi" tushunchasining mavjud ta'rif korxonaning faqat mulkka egalik nuqtai-nazaridan davlatga tegishlilikini aks ettiradi. Haqiqatda davlat egaligida bo'lgan tijorat subyektlarining ko'lami va mohiyatini qamrab olmaydi.

Korxona faoliyatini boshqarishda boshqa turdagi ta'sir o'tkazish va nazorat instrumentlari inobatga olinmaydi va ularni davlat korxonasi sifatida tasniflash imkonini bermaydi. Amaliyotda turli tashkiliy huquqiy shakllarda uchraydigan assotsiatsiya, uyushma, xo'jalik boshqaruvi organi, fond, jamg'arma, kengash kabi tuzilmalar mavjudki, ularning aksariyati nafaqat tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatiga, texnik, boshqaruv va kadrlar siyosatiga, savdo va moliyaviy oqimlariga ta'sir etadi, balki biznesga majburiy ko'rsatmalar berish, texnik va boshqa normativ talablarni tasdiqlash kabi vakolatlarga ham ega hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta'rifdan ko'rish mumkinki, Davlat korxonalari to'g'risidagi nizomda, davlat korxonasi sifatida uning shakllaridan biri bo'lgan davlat unitar korxonalari nazarda tutilmoqda. Vaholanki, davlat korxonalari aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyat, shirkat va/yoki boshqa tashkiliy huquqiy shakllarda faoliyat olib borishi mumkin. Jumladan, O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning (2100 ta) katta ulushi (51%) mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida (1071ta) tashkil etilgan va faoliyat olib boradi¹⁰.



1-rasm: Davlat ishtirokidagi korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha taqsimoti¹¹

8 OECD, 2005, "OECD Comparative Report on Corporate Governance of State-owned Enterprises" The World Bank, 2006, "Held by the Visible Hand – the Challenge of SOE Corporate Governance for Emerging Markets" Kowalski, P. et al (2013), "State-Owned Enterprises: Trade Effects and Policy Implications", OECD Trade Policy Papers, No. 147, OECD Publishing.

9 www.publicfinanceinternational.org/news/2014/09/ipsas-reforms-proposed-for-state-owned-firms/?utm_source=Adestra&utm_medium=email&utm_term=

10 Ushbu ma'lumot 2022-yil 1-iyun holatiga olingan. Ta'kidlash joizki, davlat ishtirokidagi korxonalar soni muntazam o'zgarib boradi.

11 Muallif ishlanmasi (Davlat aktivlarini boshqarish agentligi rasmiy sayti www.davaktiv.uz ma'lumotlari asosida)



Alohida qayd etish joizki, bundan tashqari O'zbekistonda davlat mulkiga asoslangan va turli (davlat) xizmatlarini ko'rsatuvchi (28 342ta) muassasa faoliyat ko'rsatmoqda¹². Muassasalar "davlat korxonasi" dan farqli ravishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 76-moddasiga ko'ra, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot hisoblanadi.

Muassasa o'z majburiyatlari bo'yicha ixtiyoridagi pul mablag'lari bilan javob beradi. Bu mablag'lar yetarli bo'lmasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonunida "davlat muassasasi – boshqaruv vazifalarini, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki boshqa notijorat tushdagi vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organi yoki tashkiloti tomonidan tashkil etilgan hamda to'liq yoxud qisman u tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilot" ekanligi belgilangan.

Davlat korxonasi va muassasalar o'zlariga birlashtirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan doirada, o'z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradi.

Davlat korxonasi o'ziga birlashtirib qo'yilgan mol-mulkni uning mulkdorning roziligi bilangina boshqa shaxsga berishga yoki uni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli.

Muassasa o'ziga birlashtirib qo'yilgan mol-mulkni va smeta bo'yicha unga ajratilgan mablag'larga sotib olingan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga yoki o'zgacha usul bilan tasarruf etishga haqli emas.

Tadqiqot davomida, so'nggi qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlarda "davlat ishtirokidagi korxona" tushunchasining ishlatilishi, jumladan quyidagi hujjatlar misolida o'rganildi:

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida davlat ishtirokidagi korxonalar atamasining qo'llanishi¹³

T/r	Normativ hujjat nomi	Davlat ishtirokidagi korxonalar atamasining qo'llanishi
1	"2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (VMQ, 29.03.2021y, 166-son)	1. Quyidagi asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin: ... ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarining (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) yetarli darajada asoslantirmasdan tashkil etilishiga, shuningdek, tegishli tarmoq va sohalaridagi boshqa korxonalarga nisbatan eksklyuziv imtiyoz va afzalliklarga ega bo'lishiga yo'l qo'ymaslik; ...
2	"Davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarining rasmiy veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (VMQ, 19.02.2021y, 81-son)	Davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarida (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) ...
3	"Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturalashtirish va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" (PQ-4325-son, 19.05.2021-y)	... davlat korxonalari, xususan, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ko'p bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va tijorat banklari (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar va banklar)ni restrukturalashtirish hamda isloh qilishga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgartirishlar izchil amalga oshirilmoqda.
4	"Davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (VMQ, 30.10.2020y, 674-son)	... Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: 1. ... vazirliklar va idoralarning rasmiy veb-saytlarida mulkdor funksiyalarini amalga oshirilayotgan davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarining (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) ...
5	"Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (PF-5630, 14.01.2019-y) birinchidan, ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) kundalik xo'jalik faoliyatiga davlat organlari aralashuvining yuqori darajadali, bozor tendensiyalariga moslashuvchanlik va sezuvchanlikning yo'qligi, ...

¹² Yuqoridagi manba.

¹³ www.lex.uz huquqiy axborot portalidan olingan ma'lumotlar asosida mustaqil shakllantirilgan.



T/r	Normativ hujjat nomi	Davlat ishtirokidagi korxonalar atamasining qo'llanishi
6	“Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” (VMQ, 09.03.2022-y, 107-son)	2. 2022-yil 1-maydan boshlab, 1-ilovadagi davlat unitar korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, shuningdek, ustav kapitalining 50 foizi va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish, ulardan foydalanish va ularning miqdorini maqbullashtirish ustidan nazorat qilishning quyidagi mexanizmi joriy etilsin:
7	“Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” (PF-6247-son, 16.06.2021y)	4. Quyidagilar 2021-yil 1-iyuldan boshlab : ... Davlat aktivlarini boshqarish agentligi – ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar hamda davlat unitar korxonalari (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) ro'yxatini;
8	“Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida” (PF-101-son, 08.04.2022-y)	15. Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) boshqaruv organlarining faoliyati samaradorligini, mas'uliyati va javobgarligini oshirish maqsadida belgilab qo'yilsinki: ...
9	“Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” (PQ-168-son, 18.03.2022-y)	4. ... doimiy ravishda ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, shuningdek, ustav kapitalining 50 foizi va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) hamda davlatga tegishli bo'sh turgan aktivlarni aniqlash bo'yicha xatlov ishlarini davom ettirsin.

Ko'rish mumkinki, davlat ishtirokidagi korxonalar tushunchasi va uning qo'llanishi, keltirilgan tahrirlar o'zaro farq qiladi, atamaning qamrovi va qo'llanishi turlicha ishlatilgan. Shunga qaramay, ushbu matnlarning aksariyat ko'pchiligi (1, 4, 7, 8-pozitsiyalar)da, davlat ishtirokidagi korxonalar deganda - davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari nazarda tutilgan.

O'zbekistonda 2015-yildan boshlab, davlat ishtirokidagi korxonalarga zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, davlat ishtirokidagi korxonalar ustav kapitaliga xorijiy investitsiyalarni jalb etish harakatlari jonlandi. Oxirgi 6 yilda davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlarda quyidagi asosiy yo'nalishlar qamrab olinmoqda:

- korxonalarda hisob va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish;
- moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosida hisobotlarni shakllantirish va tashqi auditdan o'tkazish;
- ijro organlarining mas'uliyatini va hisobdorligini oshirish;
- nosohaviy aktivlardan oqilona foydalanish;
- aksiya paketlari va ulushlarni investorlarga sotish.

Ushbu yo'nalishda ko'rilayotgan amaliy choralar tadrijiy xususiyatga ega bo'lib, yakuniy natijalari uzoq muddatli istiqbolda o'zini ko'rsatadi, deb o'ylaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'lami va ahamiyati milliy iqtisodiyotimiz uchun ulkan bo'lgan bir sharoitda ularni transformatsiya qilmasdan turib milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga, korxonalarning jozibadorligiga erishish mushkul.

Quyidagi takliflar ushbu yo'nalishlarda islohotlarni jadal davom ettirishga yordam beradi, deb hisoblaymiz:

1. Davlat korxonalarini (ulushlarini) investorlarga sotish ushbu korxonalarda shaffoflik va samaradorlik oshishiga olib keladi.

Ushbu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston - 2030” strategiyasida iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 mingta korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish vazifasi belgilangan.

Buning uchun, davlat korxonalarini, ayniqsa kichik miqdordagi korxona va ulushlarni soddalashtirilgan tartibda sotish usullari qo'llanishi lozim.

Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish ushbu korxonalarga qo'shimcha kapital, yangi bilim va boshqaruv usullarini olib kelish yo'li hisoblanadi.



2. Davlat ishtirokidagi korxonalarni, jumladan nazorat ulushi davlat ixtiyorida saqlab qolingan taqdirda ham moliya bozorlariga olib chiqish zarur.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasining 49-maqsadida, mamlakatimizning qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish, erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish, 40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini “Xalq IPO”siga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish belgilangan.

Mazkur vazifani professional maslahatchilarni jalb etgan holda, taklif etilayotgan davlat aksiyalariga adolatli bozor narxlarini belgilagan holda amalga oshirish lozim.

3. “Davlat ishtirokidagi korxona” atamasining qamrovi va qo‘llanishini birxillashtirish maqsadga muvofiq.

Chunki, davlat ishtirokidagi korxonalar tushunchasi nafaqat xususiylashtirish jarayonlarini, balki davlat xaridlari sohasida, raqobat qonunchiligi talablarini va nazorat tekshiruvchilarini to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Patricia Bachiller, University of Zaragoza | UNIZAR · Department of Accounting and Finance (FECM). The Impact of Privatization on Economic Performance in European Companies, 2012.
2. D’Souza, J. & Megginson, W. (1999). The financial and operating performance of privatized firms during the 1990s. // Journal of Finance, 54 (4), 1397–1438.
3. Dang, L. N., D. D. Nguyen, and F. Taghizadeh-Hesary. 2020. State-Owned Enterprise Reform in Viet Nam: Progress and Challenges. ADBI Working Paper 1071. Tokyo: Asian Development Bank Institute. Available: <https://www.adb.org/publications/state-owned-enterprise-reform-viet-nam-progress-challenges>
4. State-Owned Enterprises in the EU: Lessons Learnt and Ways Forward in a Post-Crisis Context. INSTITUTIONAL PAPER 031 | JULY 2016. http://ec.europa.eu/economy_finance/publications/.
5. Обид Ҳакимов, “Роль государства и бизнеса в экономике: поворотный момент реформ”. Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2022-yil 12-aprel. <https://yuz.uz/ru/news/rol-gosudarstva-i-biznesa-v-ekonomike-povorotny-moment-reform>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
7. The World Bank, 2006, Held by the Visible Hand – the Challenge of SOE Corporate Governance for Emerging Markets” Kowalski, P. et al (2013), State-Owned Enterprises: Trade Effects and Policy Implications”, OECD Trade Policy Papers, No. 147, OECD Publishing.
8. Internet resurslari:
<http://www.lex.uz>
<https://yuz.uz>
<http://www.davaktiv.uz>
<https://oecd.org>
www.publicfinanceinternational.org
<https://www.wto.org>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.